

**Byudjet mablag'larini oluvchilar uchun
aviachiptalar sotuvida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha
№ 95 -son SHARTNOMASI**

Toshkent sh.

2022 yil 25 yanvar

Nizom asosida faoliyat yurituvchi «Uzbekistan Airways» Aksiyadorlik Jamiyati Filiali - «Uzbekistan Airways Sales» nomidan, uning direktori V.I.Filipas bir tomondan, keyingi matnlarda «Ijrochi» deb ataladi va Nizom asosida faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi eksportini rag'batlantirish agentligi nomidan direktor Muradov U.K., keyingi matnlarda «Buyurtmachi» deb ataladi, ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Ijrochi» tomonidan «Uzbekistan Airways» Aksiyadorlik Jamiyatining, keyingi matnlarda «Tashuvchi»ning xalqaro va Respublika hududidagi muntazam qatnovlariga joylarni bron qilish va aviachiptalarni sotish bo'yicha naqd pulsiz to'lov asosida xizmatlar taqdim etiladi, «Buyurtmachi» tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida va to'liq miqdorda pul mablag'lari to'lanishi amalga oshiriladi.

1.2. Ushbu shartnoma bo'yicha xizmatlar «Ijrochi»ning Markaziy aviatashuvlar sotuv ofisida taqdim etiladi.

2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

2.1. «Ijrochi»ning majburiyatlari:

2.1.1. Xizmatlar ko'rsatilishi taqdim etilishi uchun, «Buyurtmachi»da yetarli miqdorda amaldagi pul mablag'larining mavjudligini hisobga olgan holda, «Tashuvchi» tomonidan belgilangan aviatashuvlarni rasmiylashtirishni tartibga soluvchi qoidalar, yo'riqnomalar va shartlarga muvofiq, aviatashuvlarni sotish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.

2.1.2. «Buyurtmachi»ga zaruriyat bo'lganda sotilgan aviachiptalar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-fakturalarni taqdim etish.

2.2. «Buyurtmachi»ning majburiyatlari:

2.2.1. Ushbu Shartnomada belgilangan shartlarga va ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblangan aviachiptalarni sotib olish uchun pul mablag'larining tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasiga muvofiq, ko'rsatiladigan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlar o'tkazilishini amalga oshirish.

2.2.2. Ushbu shartnoma bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar uchun «Ijrochi»dan olingan zarur hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish.

2.2.3. «Ijrochi» tomonidan rasmiylashtirilgan aviachiptalar va turli yig'imlar orderlarini (EMD, MSO) qat'iy shaklda belgilangan ishonchnoma asosida qabul qilish.

3. SHARTNOMA BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Ushbu Shartnomaning bahosi O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi, so'mda hisoblanadi va 13 224 241 (o'n uch million ikki yuz yigirma to'rt ming ikki yuz qirq bir) so'mni tashkil etadi, respublika hududidagi qatnovlarda QQS 15% stavka, hamda MDH va uzoq xorijiy mamlakatlar qatnovlarida 0 % stavka hisobi bo'yicha shakllanadi. Zaruriyat bo'lganda, «Buyurtmachi»ga ushbu shartnomaga ilova sifatida sotilgan aviachiptalar narxlarini bo'yicha Tasniflash ro'yxati taqdim etiladi.

3.2. «Buyurtmachi» ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab va O'zbekiston Respublikasi hududiy G'aznachilik Boshqarmasining ro'yxatida qayd etilgan kundan so'ng, 5 (besh) bank ish kunlari ichida «Ijrochi»ga 100% miqdorida summaning oldindan to'lanishini amalga oshiradi.

3.3. Zaruriyat bo'lganda, «Ijrochi» aviachipta sotib olinganidan so'ng 10 (o'n) kun ichida «Buyurtmachi»ga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-fakturalarini taqdim etadi.

3.4. Foydalanilmagan yoki qisman foydalanilgan aviachiptalar bo'yicha pul mablag'larini qaytarish, ularni qayta rasmiylashtirish (qayta bronlash), «Tashuvchi» tomonidan o'rnatilgan ushbu amaliyotlarning tartibini belgilovchi normativ va tashkiliy-farmoyish hujjatlardagi talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

3.5. Foydalanilmagan pul mablag'larini «Buyurtmachi»ga qaytarish, ikki tomonlararo imzolangan solishtiruv-dalolatnoma va «Buyurtmachi»ning xati asosida «Ijrochi» tomonidan amalga oshiriladi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

4.1. Tomonlar o'z zimmlariga olgan majburiyatlarini buzgan holatlarida, O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida» gi Qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

4.2. Mazkur Shartnoma yoki uning qo'llanishi yuzasidan kelib chiqadigan Tomonlar o'rtasidagi o'zaro barcha nizolar – muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, nizolar Toshkent Tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

4.3. «Ijrochi» «Buyurtmachi»ga yuklatilgan majburiyatlar bo'yicha javobgarlikka ega emas, shuningdek «Buyurtmachi» ham «Ijrochi»ga yuklangan majburiyatlar bo'yicha javobgar bo'lmaydi.

4.4. «Ijrochi» va «Buyurtmachi» belgilangan majburiyatlarini bajarishlariga to'sqinlik qilayotgan yengib bo'lmay kuchlar (fors-major) ta'sirida ro'y bergan vaziyatlar to'g'risida ikkinchi tomonni zudlik bilan o'z vaqtida ogohlantirish, ushbu Shartnomadagi majburiyatlarni bajarishdan ozod qilinadilar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.02.2005-yildagi 63-sonli Qaroriga muvofiq, yengib bo'lmay kuchlar (fors-major) ta'siridagi vaziyatlar deb quyidagilar belgilangan: tabiiy hodisalar oqibatida yuz beradigan kutilmagan, qaytarib bo'lmay, muqarrar va favquloddagi vaziyatlar (zilzilalar, sellar, bo'ronlar, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar (urush, qamal etilish holatlari, davlat ehtiyojlari sababli eksport va importga ta'qiq qo'yilishi va boshqalar), Tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishlari uchun ixtiyorlari va imkoniyatlariga bo'ysunmaydigan sharoitlar.

5. MAXSUS SHARTLAR

5.1. «Ijrochi» tomonidan xizmatlar ko'rsatilishi, ushbu shartnomaning 2.1.1.- bandiga muvofiq «Amadeus» avtomatlashtirilgan bronlash tizimi orqali, aviatashuv rasmiylashtirilayotgan vaqtda sotuvda bo'sh o'rinlarning mavjudligini

inobatga olgan holda amalga oshiriladi. «Ijrochi» aniq bir qatnovda bo'sh o'rnlarning mavjud bo'lmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

5.2. «Ijrochi» joyning bron qilinishini "Buyurtmachi"ning talabi bo'yicha amalga oshiradi. Bronning saqlanishi avtomatik tarzda o'rnatilgan taym-limitga – bronning amal qilish muddatiga bog'liq. "Tashuvchi" tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq, oldindan joylarni bron qilish aviachipta rasmiylashtirilishidan avval amalga oshiriladi, shuningdek bron qilingan joylar "Tashuvchi"ning xususiy mulki hisoblanganligi uchun, zaruriyat bo'lganida aviakompaniya oldindan xabar bermasdan bron qilingan joylarni bekor qilish huquqiga ega.

5.3. Hech bir Tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquqlari va majburiyatlarini boshqa uchinchi tomonga berish huquqiga ega emas.

5.4. "Tashuvchi" tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlarga va tarif siyosatiga o'zgartirishlar kiritilsa, hamda yuklatilgan talablar bajarilishi uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bank tizimida xizmat ko'rsatilish kuni valyuta kurslari o'zgargan holatlarda, «Ijrochi» mustaqil ravishda ko'rsatiladigan xizmatlar (tariflar, yig'imlar va hokazolar) narxlarini qayta ko'rib chiqish huquqiga ega.

5.5. "Ijrochi" "Tashuvchi"ning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan majburiy xususiyatdagi harakatlar uchun javobgar emas, ya'ni: havo kemasini almashtirish, jadvalni o'zgartirish, qatnovlarni bekor qilish yoki kechiktirish, xizmat ko'rsatish klassidagi nomuvofiqliklar, qatnovlar tutashuvini ta'minlamaslik va boshqalar.

5.6. Tomonlarning har biri qo'llab-quvvatlash uchun to'lovlar berilishini yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq rasmiyatchiliklarni osonlashtirish va ba'zi bir masalalarni yanada tezroq hal qilish maqsadida amalga oshirilgan korruptsiyaga oid harakatlarning batamom taqiqlanishini nazarda tutadigan, poraxo'rlik va korruptsiyaga nisbatan hech qanday toqat qilmaslik siyosatini olib borishlarini e'tirof etadilar va tasdiqlaydilar. Tomonlar, o'z faoliyatlari jarayonida poraxo'rlik va tijoratda rishvaxo'rlarga qarshi kurashishda, amaldagi qonunchilik talablariga va qonun asosida tartibga solingan siyosatlar va amaliyotlarga tayanadilar.

Tomonlar biron-bir rasmiy shaxslarga, tijorat tashkilotlari va davlat lavozimidagi shaxslarga, hech qanday biron-bir korruptsiyaga oid to'lovlarni (pul mablag'lari yoki qimmatbaho sovg'alarni) taklif va taqdim etmaslikka va olishga rozilik bermaslikka, shuningdek o'zlari ham hech bir shaxsdan bilvosita yoki bevosita korruptsiyaga oid to'lovlarni va sovg'alarni qabul qilmaslikka yoki olishga rozilik bermaslikka kafolat beradilar.

Tomonlarning birida mazkur bandning bibon-bir shartlari buzilgani to'g'risida shubha yoki gumon tug'ilgan vaziyatlarda, tegishli Tomon boshqa Tomonni yozma ravishda rasmiy aloqa vositalari yo'rdamida ogohlantirish majburiyatiga ega. Tomonning yozma ogohlantirish xatida, mazkur bandning biron-bir shartlari ikkinchi Tomondan, unga tegishli xodimlar, sheriklari yoki o'rtada turgan shaxslar tomonidan buzilganini yoki buzilishi mumkinligini tasdiqlovchi yoki taxmin qilish uchun asoc bo'ladigan aniq ma'lumotlar yoki materiallar dalil sifatida taqdim etilishi kerak. Yozma ravishda ogohlantirish berilganidan so'ng, qoidabuzarliklar sodir bo'lmaganligi yoki bo'lmashligi yozma ravishda tasdiqlanmagunga qadar, tegishli Tomon mazkur Kelishuv bo'yicha yuklatilgan majburiyatlarining bajarilishini to'xtatish huquqiga ega.

6. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI VA AMAL QILISH MUDDATI

6.1. Mazkur Shartnoma "Buyurtmachi" tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiy G'aznachilik Boshqarmasining ro'yxatida qayd etilgan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yilning 31-dekabriga qadar amal qiladi.

6.2. Shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin yoki Tomonlarning o'zaro kelishuvi bo'yicha bekor qilinadi. Shuningdek Shartnoma Tomonlarning birini talabiga muvofiq, 10 (o'n) kalendar kun oldin boshqa Tomonga yozma ravishda ogohlantirish yuborilgandan so'ng bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.

6.3. Shartnoma bekor qilingunga qadar, Tomonlar mazkur Shartnomaning shartlari bo'yicha barcha o'zaro moliyaviy hisob-kitoblarni to'liq yakunlagan bo'lishlari kerak.

6.4. Shartnomada ko'rsatilgan Tomonlarning biri nomini, joylashgan manzilini, bank va boshqa rekvizitlarini o'zgartirgan yoki Tomonlarning biri qayta tashkil etilayotgan bo'lsa, o'zgartirishlar kiritayotgan Shartnomadagi Tomon 10 (o'n) ish kuni ichida Shartnomadagi boshqa Tomonga yozma ravishda xabarnoma yuborishi kerak.

6.5. Ushbu Shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilgandan so'ng va ikki Tomonlararo imzolangandan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.6. Ushbu Shartnomada ko'rsatilmagan boshqa barcha holatlar bo'yicha, Tomonlar amaldagi qonunchilik hujjatlaridagi qoidalarni qo'llaydilar.

6.7. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham Tomonlar uchun bir xil yuridik kuchga ega deb hisoblanadi.

«Ijrochi»

«Uzbekistan airways» AJ Filiali - «Uzbekistan airways sales»
Manzil: Toshkent sh., 100060,
Amir Temur shoh ko'chasi 51
Tel/faks: (78)140-47-81
Bank hisob raqami: 2021 0000 7051 1530 7002
Bank nomi:
XATB «ORIENT FINANS»
MFO: 01110,
STIR: 306628114
OKED: 52230

Direktor:  V.I. Filipas

«Buyurtmachi»

O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi eksportini rag'batlantirish agentligi
Manzil: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Taras
Shevchenko ko'chasi 34
Tel/faks: (71) 232-12-42
Sh/h.r. 100010860262737041990088001
STIR: 306303488, OKED: 84111
G'aznachilik bo'linmasi nomi:
Moliya Vazirligi G'aznachiligi
G'aznachilik h/r: 23402000300100001010
Bank nomi: УР МБ Тошкент ш. Бош Бошкармаси ХККМ
MFO: 00014, G'aznachilik bo'linmasi STIR: 201122919

Rahbar:  Murodov U.

25.01.2022 yildagi № 95-sonli shartnomaga
1-sonli ilova.

Aviachiptalarni rasmiylashtirish bo'yicha tasniflash ro'yxati

**O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi eksportini
rag'batlantirish agentligi**

№	Aviachipta raqami	Yo'nalish	Rasmiylashtirish sanasi	Aviachipta narxi (so'm)
1.	2502100597278	Toshkent-Moskva-Toshkent	25.01.2022	7 626 637,00
2.	2502100597279	Toshkent-Moskva-Toshkent	25.01.2022	5 597 604,00
JAMI:				13 224 241,00

Debitorlik qarzdorligi			
№	Xizmatlar ko'rsatish	Narxi (so'm)	Jami (so'm)
1.	Aviachiptalarni sotish	13 224 241,00	
2.	Aviachiptalarni qaytarish		-
JAMI:			13 224 241,00

«Uzbekistan airways» AJ Filiali - «Uzbekistan
airways sales»



Direktor:

Filipas V.I.

O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi
savdo vazirligi huzuridagi eksportini
rag'batlantirish agentligi



Rahbar:

Alexander U.K.